O‘ZBEKISTON MILLIY STANDARTI

TUXUM MAHSULOTLARI STANDARTI

(EGG-2:2017, IDT)

Rasmiy nashr

O‘zbekiston standartlar instituti
Toshkent

STANDARTLAR INSTITUTI #NFVVF29WBL - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

So‘zboshi

1 O‘zbekiston standartlar instituti tomonidan **ISHLAB CHIQILDI.**

2 O‘zbekiston standartlar institutining 2026-yil 21-iyul 26/XSt-26-sonli buyrug‘i bilan **TASDIQLANDI.**

3 Ushbu standart EGG-2:2017 “EGG PRODUCTS” xalqaro standartiga aynan o‘xshash.

4 DASTLABKI AMALGA KIRITILISHI

Ushbu milliy standart va unga bo‘lgan o‘zgartishlarni O‘zbekiston hududida amalga kiritish haqidagi axborot Standartlashtirish bo‘yicha milliy organning rasmiy veb-saytlari va standartlarning yillik axborot ko‘rsatkichlarida chop etiladi.

Ushbu standartni O‘zbekiston hududida rasmiy tarqatish mutlaq huquqi O‘zbekiston standartlar institutiga tegishlidir

STANDARTLAR INSTITUTI #NFVVF29WBL - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

IZOH

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari sifati standartlari bo‘yicha ishchi guruh

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Yevropa iqtisodiy komissiyasi (BMT YIK) Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari sifati standartlari bo‘yicha ishchi guruhi tomonidan ishlab chiqilgan tijorat sifati standartlari xalqaro savdoni rivojlantirishga ko‘maklashadi, yuqori sifatli ishlab chiqarishni rag‘batlantiradi, daromadlilikni oshiradi hamda iste’molchilar manfaatlarini himoya qiladi. BMT YIK standartlaridan hukumatlar, ishlab chiqaruvchilar, savdogarlar, importer va eksporterlar, shuningdek, boshqa xalqaro tashkilotlar foydalanadi. Ushbu standartlar qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining keng turini, jumladan, yangi uzilgan meva va sabzavotlar, quritilgan mahsulotlar, urug‘lik kartoshka, go‘sht, kesilgan gullar, tuxum va tuxum mahsulotlarini qamrab oladi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining istalgan a’zosi Ishchi guruh faoliyatida teng huquqlilik asosida ishtirok etishi mumkin. Qishloq xo‘jaligi standartlari haqida batafsil ma’lumot olish uchun veb-saytimizga tashrif buyuring.

Tuxum mahsulotlari bo‘yicha mazkur qayta ko‘rib chiqilgan Standart Ishchi guruhning 2017-yil noyabr oyida bo‘lib o‘tgan yetmish uchinchi sessiyasida qabul qilingan ECE/CTCS/WP.7/2017/25 (ECE/CTCS/WP.7/2017/25/rev http://www.unece.org/index.php?id=44974) hujjatiga asoslangan.

Izoh

Ushbu Standart qoidalari qamrab oladigan mahsulotlarni tayyorlash va ularga ishlov berish (saqlash/tashish) jarayonlari Kodeks standartlari gigiyena, ifloslantiruvchi moddalar, qoldiq moddalar yoki veterinariya dori vositalari va pestitsidlar, kuzatiluvchanlik hamda tamgalash bo‘yicha Kodeks standartlariga muvofiq amalga oshirilishi tavsiya etiladi.

(Batafsil ma’lumot uchun http://www.unece.org/trade/agr/standard/meat/meat_e.html veb-saytiga murojaat qiling).

Tashakkurnoma

BMT YIK mazkur Standartni ishlab chiqish va qayta ko‘rib chiqish jarayonida Go‘sht mahsulotlarini standartlashtirish bo‘yicha ixtisoslashtirilgan sho‘ba delegatsiyalarining qo‘shgan hissasini alohida e’tirof etadi.

BMT YIK, shuningdek, ushbu standartning yangilangan tahririni tayyorlagani uchun Amerika Qo‘shma Shtatlari delegatsiyasiga alohida minnatdorchilik bildiradi.

Ushbu nashrda qo‘llanilgan belgilashlar va materiallarning taqdim etilishi Birlashgan Millatlar Tashkiloti Kotibiyatining biron-bir mamlakat, hudud, shahar yoki mintaqaning yoxud ularning ma'muriy organlarining huquqiy maqomi, yoki ularning chegaralarini belgilash yuzasidan o'z nuqtai nazarini ifoda etishni anglatmaydi. Kompaniya nomlari yoki tijorat mahsulotlarining tilga olinishi Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan ularni ma'qullashni anglatmaydi.

Barcha materiallardan erkin iqtibos keltirish yoki qayta nashr etish mumkin, biroq manbaga havola qilish talab etiladi.

Har qanday sharh yoki so'rovlar bo'yicha biz bilan quyidagi manzil orqali bog'lanishingiz mumkin:

STANDARTLAR INSTITUTI #NFVVF29WBL - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

Qishloq xo‘jaligi standartlari bo‘limi
Iqtisodiy hamkorlik va savdo boshqarmasi
Birlashgan Millatlar Tashkilotining Yevropa uchun iqtisodiy komissiyasi
Millatlar saroyi
CH-1211 Geneva 10, Shveysariya
E-mail: agristandards@unece.org

STANDARTLAR INSTITUTI #NFVVF29WBL - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

Mundarija

I. KIRISH
A. Tuxum mahsulotlari uchun BMT Iqtisodiy komissiyasi standarti 1
B. Qo‘llanilish doirasi 1
C. Standartda qo‘llaniladigan ta'riflar 2
II. SIFATGA QO‘YILADIGAN TALABLAR 4
A. Minimal talablar 4
B. Xaridor tomonidan belgilangan talablar 4
III. TUXUM MAHSULOTLARI UCHUN XARIDOR TALABLARI BO‘YICHA UCHUN BMT YIK KODI 17
A. Kod ta’rifi 17
B. Namuna 18
IV. TAHLIL USULLARIGA OID QOIDALAR 19
I ILOVA. ODDIY TUXUM MAHSULOTLARINING FIZIK VA KIMYOVIY KO'RSATKICHLARI 20
II ILOVA. TAHLIL VA NAMUNA OLISH USULLARI 21
I. Namunani tayyorlash 21
II. Usullar 22
1-usul: Yog‘ miqdorini aniqlash 22
2-usul: Alfa-amilaza sinovi 25
3-usul: Yot moddalarni aniqlash 26
4-usul: Sut kislotasini aniqlash 26
5-usul: Qahrabo kislotani aniqlash 26
6-usul: Beta-gidroksibutil, sut va qahrabo kislotalarni aniqlash 26

STANDARTLAR INSTITUTI #NFVVF29WBL - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

O‘ZBEKISTON MILLIY STANDARTI

TUXUM MAHSULOTLARI STANDARTI

СТАНДАРТ ПРОДУКТЫ ИЗ ЯИЦ

STANDARD EGG PRODUCTS

Amalga kiritish sanasi 1.08.2026

I. Kirish

A. Tuxum mahsulotlari standartlari

1. BMT YIKning tuxum mahsulotlari bo‘yicha standartidan ko‘zlangan maqsad xaridor va sotuvchi o‘rtasida qo‘llaniladigan xalqaro muloqot tilini tavsiya etish orqali savdo-sotiqni rivojlantirishga ko‘maklashishdan iborat. Mazkur til xalqaro miqyosda savdo qilinadigan tuxum mahsulotlarini tavsiflaydi hamda o‘zaro aloqa va elektron tijorat uchun kodlashtirish tizimini belgilaydi.

2. Standart muntazam ravishda yangilab borilishi sababli, unga o‘zgartirishlar kiritish zarur deb hisoblaydigan tuxum mahsulotlari ishlab chiqaruvchilariga BMT YIK kotibiyati bilan bog‘lanish tavsiya etiladi. Kechiktirib bo‘lmaydigan choralarni talab qiladigan o‘zgartirishlar BMT YIKning quyidagi veb-saytida e’lon qilinadi: <www.unece.org/trade/agr/standards.htm>.

3. BMT YIKning kodlashtirish tizimiga bag‘ishlangan III bobida tuxum mahsulotlari uchun quyidagi koddan foydalaniladi:

Tuxum mahsuloti (1-ma’lumot maydoni)	*BMT YIK kodi (1-ma’lumot maydoni)*
Tuxum mahsulotlari	76

B. Qo‘llanish doirasi

4. Mazkur standart inson iste’moli uchun mo‘ljallangan oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishda foydalaniladigan hamda BMT YIKning sifatli oziq-ovqat mahsulotlari sifatida ishlab chiqarilgan. Gallus turiga mansub tovuqlardan olingan tuxumlardan tayyorlanadigan mahsulotlar uchun xalqaro muloqot tilini tavsiya etadi. U xaridorlarga xalqaro miqyosda savdo qilinadigan tuxum mahsulotlarini navlarga ajratish (tasniflash), qadoqlash, tamgalash va ularning boshqa jihatlari bo‘yicha keng turdagi tanlov imkoniyatlarini taqdim etadi.

5. Mahsulotlarning ushbu standart talablariga muvofiqligini ta’minlash uchun xaridorlar mustaqil va xolis uchinchi tomon xizmatlaridan foydalanishni tanlashlari mumkin.

6. Tuxum mahsulotlarini xalqaro chegaralar orqali yetkazib berishda oziq-ovqat gigiyenasi va veterinariya nazoratiga oid qonunchilik talablariga rioya qilinishi kerak . Mazkur standart boshqa hujjatlar bilan qamrab olingan ushbu jihatlarni belgilashga (tartibga solishga)

STANDARTLAR INSTITUTI #NFVVF29WBL - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

nazarda tutmaydi: bunday qoidalar milliy yoki xalqaro qonunchilik yoxud import qiluvchi mamlakatning talablari ixtiyoriga qoldiriladi.

7. Standartda hukumatlarga sifatni saqlab qolish bo‘yicha yo‘l-yo‘riq ko‘rsatishga qaratilgan boshqa xalqaro bitimlar, standartlar va amaliyot kodekslariga havolalar mavjud. Sog‘liqni saqlash va gigiyena talablariga oid xalqaro havola sifatida Kodeks Alimentarius Komissiyasining kodeks standartlariga tegishli standartlari va kodekslariga, xususan, “Tuxum va tuxum mahsulotlari uchun gigiyena amaliyoti kodeksi”ga[1] murojaat qilinishi lozim.

C. Standartda qo‘llaniladigan ta’riflar

8. Tuxum mahsulotlari deganda, inson iste’moli uchun mo‘ljallangan, po‘stlog‘idan ajratilgan tuxum ichidagi barcha tarkibiy qismlar yoki ularning bir qismi qo‘shimcha ingredientlar qo‘shilgan yoki qo‘shilmagan holda tushuniladi. Tuxum mahsuloti ularga muayyan xususiyatlarni berish va/yoki ularning sifatini saqlash uchun mo‘ljallangan oziq-ovqat ingredientlari hamda oziq-ovqat qo‘shimchalarini o‘z ichiga olishi mumkin. Qo‘shimchalar oziq-ovqat mahsuloti sifatida iste’molga yaroqli deb tasdiqlangan bo‘lishi lozim. Kodeks Alimentarius Komissiyasining oziq-ovqat mahsulotlariga oid talablari[2] va import qiluvchi mamlakatlarda foydalanishga ruxsat etilgan bo‘lishi lozim.

9. Tuxum mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun mo‘ljallangan oziq-ovqat xomashyosi deganda, oziq-ovqat qo‘shimchalari va biologik faol qo‘shimchalardan tashqari, oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun foydalaniladigan o‘simlik, hayvonot, mikrobiologik, mineral yoki sun’iy kelib chiqishga ega bo‘lgan xomashyo hamda oziq ovqat va Biologik faol qo‘shimchalar bundan mustasno.

10. Oziq-ovqat qo‘shimchalari — mahsulotga muayyan xususiyat berish va/yoki uning sifatini saqlash maqsadida qo‘shiladigan tabiiy yoki sun’iy moddalar hamda ularning aralashmalari bo‘lib, ulardan foydalanish Codex Alimentarius komissiyasining oziq-ovqat mahsulotlariga oid talablariga muvofiq hamda import qiluvchi mamlakatda ruxsat etilgan bo‘lishi kerak.

11.Oziq-ovqat ingredientlari - oziq-ovqat mahsulotlarining tarkibida ko‘rsatilgan ularning tarkibiy qismlaridir.

12. Po‘stlog‘idan ajratilgan butun tuxum (melanj) - tegishli ishlab chiqarish amaliyotiga muvofiq, po‘choqli tovuq tuxumlari chaqilib, uning to‘liq tarkibidan olingan bir jinsli) mahsulotdir.

13. Suyuq tuxum mahsuloti - po‘stlog‘idan ajratilgan butun tuxum (melanj), tuxum oqsili va tuxum sarig‘idan suv qo‘shmagan yoki uni ajratib olmagan holda olingan mahsulotdir.

---

[1] FAO/JSST Kodeks Alimentarius Komissiyasining “Tuxum va tuxum mahsulotlari uchun gigiyena amaliyoti kodeksi”ga (CAC/RCP 15-1976, 1976-yilda qabul qilingan, 1978-yilda o‘zgartirishlar kiritilgan, 2007-yilda qayta ko‘rib chiqilgan) muvofiq oziq-ovqat mahsuloti sifatida iste’molga yaroqli deb tasdiqlangan bo‘lishi lozim. Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida tuxum mahsulotlariga nisbatan, shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlari gigiyenasi to‘g‘risidagi 852/2004-sonli (EC) va 853/2004-sonli (EC) reglamentlar ham qo‘llaniladi.

STANDARTLAR INSTITUTI #NFVVF29WBL - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

14. Tuxum sarig‘i - tegishli ishlab chiqarish amaliyotiga muvofiq, po‘choqli tovuq tuxumlari chaqilib, uning sarig‘i ajratib olinishi natijasida tayyorlangan bir jinsli mahsulotdir.

15. Tuxum oqi[3] - tegishli ishlab chiqarish amaliyotiga muvofiq, po‘choqli tovuq tuxumlari chaqilib, uning oqsili ajratib olinishi natijasida tayyorlangan bir jinsli mahsulotdir.

16. Muzlatilgan tuxum mahsuloti - suyuq tuxum mahsulotini muzlatish jumladan, chuqur muzlatish jarayonidan o‘tkazish orqali olingan va muzlagan holatda saqlanadigan mahsulotdir.

17. Quritilgan tuxum mahsuloti - suyuq tuxum mahsulotidan quritish jarayoni orqali suvni ajratib olish natijasida kukun yoki granula shaklida olingan mahsulotdir.

18. Konsentrlangan (quyultirilgan) tuxum mahsuloti - suvni ajratib olish yo‘li bilan olingan, quruq moddalar miqdori o‘zining suyuq yoki muzlatilgan muqobiliga qaraganda yuqoriroq bo‘lgan tuxum mahsulotidir. Konsentrlangan tuxum mahsulotidagi quruq moddalarning aniq miqdori xaridor va sotuvchi o‘rtasidagi kelishuvga ko‘ra belgilanadi.

19. Aralashtirilgan tuxum mahsuloti - po‘choqli tovuq tuxumlari tarkibiy qismlarining nisbati butun tuxum, tuxum sarig‘i va tuxum oqsiliga nisbatan o‘zgartirilgan holda tayyorlangan tuxum mahsulotidir. Aralashtirilgan tuxum mahsulotidagi tarkibiy qismlar nisbatining aniq qiymati xaridor va sotuvchi o‘rtasidagi kelishuvga ko‘ra belgilanadi.

20. An’anaviy tuxum mahsuloti - tuxumning xususiyatlari va/yoki tarkibini o‘zgartirish uchun maxsus jarayonlarni qo‘llamasdan, an’anaviy usullar yordamida olingan tuxum mahsulotidir.

21. Modifikatsiyalangan tuxum mahsuloti - tegishli ishlab chiqarish amaliyotiga mos keladigan maxsus jarayonlarni qo‘llash orqali xususiyatlari o‘zgartirilgan tuxum mahsulotidir.

22. Fermentatsiyalangan tuxum mahsuloti - uning xususiyatlarini o‘zgartirish (masalan, ko‘pik hosil qilish, emulgatsiyalash kabi tabiiy funksional xususiyatlarini oshirish) va/yoki uni barqarorlashtirish (shakardan tozalash) uchun qo‘llaniladigan fermentatsiya agentlari (achitqi moddalar) ta’sirida olingan tuxum mahsulotidir. Tuxum mahsulotlarini fermentatsiyalash/barqarorlashtirish uchun foydalaniladigan kultura yoki agentlarga yuqoridagi 10-bandda ko‘rsatilgan tartibda ruxsat berilgan bo‘lishi lozim.

23. Barqarorlashtirilgan tuxum mahsuloti - maxsus jarayonlarni (masalan, fermentatsiya yoki ultrafiltratsiya) qo‘llash orqali shakardan tozalash yo‘li bilan olingan tuxum mahsulotidir.

24. Kislotalangan tuxum mahsuloti — nordonlikni tartibga soluvchi moddalarni (mahsulotning pH darajasini o‘zgartirishga mo‘ljallangan qo‘shimchalarni) qo‘shish orqali olingan tuxum mahsulotidir.

25. Termik ishlov berilgan tuxum oqsili - uning ko‘pik hosil qilish xususiyatlarini oshirish maqsadida, tegishli ishlab chiqarish amaliyotiga muvofiq, muayyan vaqt davomida yuqori harorat ta’sirida ushlab turilgan quritilgan tuxum oqsilidir.

---

[2] FAO/JSST oziq-ovqat standartlari bo‘yicha qo‘shma dasturi. Kodeks Alimentarius Komissiyasi. Tartib-taomillar bo‘yicha qo‘llanma, o‘n yettinchi nashr, 2007-yil (yangilanishlarni quyidagi manzildan topish mumkin: www.codexalimentarius.net/web/procedural_manual.jsp). Oziq-ovqat qo‘shimchalari bo‘yicha umumiy Kodeks standarti, CODEX STAN 192-1995, 1995-yilda qabul qilingan, oxirgi qayta ko‘rib chiqilgan yili – 2008-yil (www.codexalimentarius.net/gsfaonline/CXS_192e.pdf).

[3] Chaqilgan tovuq tuxumlarini sentrifuga yordamida ajratish orqali olingan tuxum oqsili (albumin) bundan mustasno.

STANDARTLAR INSTITUTI #NFVVF29WBL - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

26. Tuzlangan yoki shakarlangan tuxum mahsuloti - tegishli ishlab chiqarish amaliyotida belgilangan miqdorda tuz yoki shakar qo‘shish orqali olingan tuxum mahsulotidir.

27. Mahsulot to‘pi - ishlab chiqarishdagi rejalashtirilgan tanaffuslar oralig‘ida ishlab chiqarilgan tuxum mahsulotining muayyan miqdoridir.

28. Pasterizatsiya qilingan tuxum mahsulotlari — mikrobiologik barqarorligini oshirish maqsadida bir martalik issiqlik ishlovi berilgan tuxum mahsulotlari.

II. Sifatga qo‘yiladigan talablar

29. Ushbu standartning maqsadi tuxum mahsulotlari tayyorlanib qadoqlangandan so‘ng ularni muomalaga kiritishning barcha bosqichlarida rioya etilishi lozim bo‘lgan sifat talablarini belgilaydi.

A. Minimal talablar

30. Tuxum mahsulotlarining barcha turlari Gallus gallus turiga mansub bo‘lgan, parvarishlanadigan (xonaki) tovuqlardan olingan B sinf va A[4] sinf tuxumlaridan hamda amaldagi oziq-ovqat xavfsizligi va inspeksiya qoidalariga muvofiq muntazam faoliyat ko‘rsatadigan korxonalarda ishlab chiqarilishi kerak.

31. Tuxum mahsulotlari quyidagi talablarga javob berishi kerak:

- Quruq moddalarning minimal miqdori, rangi va pH ko‘rsatkich bo‘yicha bir jinsli bo‘lishi;
- Oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishda foydalanish uchun yaroqli bo‘lishi;
- Po‘choq parchalaridan xoli bo‘lishi hamda I ilovada ko‘rsatilgan yot aralashmalar uchun ruxsat etilgan me’yorlarga muvofiq bo‘lishi;
- Rangi, hidi va ta’mi tabiiy hamda har bir mahsulotga xos bo‘lishi;
- Quritilgan tuxum mahsulotlari osongina qayta tiklanadigan bo‘lishi lozim.

B. Xaridor tomonidan belgilanadigan talablar

32. Quyidagi kichik bo‘limlarda xaridor tomonidan belgilanishi mumkin bo‘lgan talablar hamda BMTning Yevropa iqtisodiy komissiyasi kodlashtirish tizimida qo‘llaniladigan tegishli kodlar ta’riflanadi.

33. Xaridor tomonidan belgilangan qo‘shimcha talablar, ular kodda hisobga olinmagan (masalan, 9-kod "boshqa" ishlatilganda) yoki mahsulotga qo‘shimcha aniqlik kirituvchi talablardir.

---

[4] A va B sinflarining ta’riflari uchun BMT Yevropa iqtisodiy komissiyasining BMT YIK “Egg-1” standartiga qarang.

STANDARTLAR INSTITUTI #NFVVF29WBL - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

1. Boshlang‘ich xomashyo materiallari

34. Quyidagi boshlang‘ich xomashyo materiallaridan foydalanishga yo‘l qo‘yilmaydi (ruxsat etilmaydi):

- Chaqilgan tuxumlardan (po‘chog‘i yorilgan va ichki qobig‘i (membranasi) shikastlanishi natijasida tarkibi tashqariga oqqan yoki ochiq qolgan tuxumlardan) olingan tuxum mahsulotlari;
- Sentrifuga yordamida po‘chog‘idan ajratib olingan tuxum tarkibi (massasi).

Boshlang‘ich xomashyo kodi (2-ma’lumotlar maydoni)	*Toifa / Tavsif*
0	Belgilanmagan
1	A sinf tuxumlari
2	B sinf tuxumlari
3	Po‘chog‘i yorilgan, lekin ichki qobig‘i shikastlanmagan B sinf tuxumlari
4	Tuxum mahsulotlari
5-8	Foydalanilmagan kodlar
9	Boshqalar

2. Mahsulot turi

Mahsulo kodi (3-ma’lumotlar maydoni)	*Toifa / Tavsif*
00	Belgilanmagan
01	Suyuq butun tuxum massasi
02	Konsentrlangan butun tuxum massasi
03	Kukunsimon quritilgan butun tuxum massasi (tuxum kukuni)
04	Granulalangan quritilgan butun tuxum massasi
05-09	Foydalanilmagan kodlar
10	Suyuq aralashmali tuxum mahsuloti
11	Konsentrlangan aralashmali tuxum mahsuloti
12	Kukunsimon quritilgan aralashmali tuxum mahsuloti
13	Granulalangan quritilgan aralashmali tuxum mahsuloti
14-19	Foydalanilmagan kodlar
20	Suyuq tuxum sarig‘i
21	Kukunsimon quritilgan tuxum sarig‘i
22	Granulalangan quritilgan tuxum sarig‘i
23-29	Foydalanilmagan kodlar

STANDARTLAR INSTITUTI #NFVVF29WBL - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

Mahsulot kodi (3-ma’lumotlar maydoni)	*Toifa / Tavsif*
30	Suyuq tuxum oqi
31	Konsentrlangan tuxum oqi
32	Kukunsimon purkab quritilgan tuxum oqi
33	Granulalangan purkab quritilgan tuxum oqi
34	Kukunsimon patnisda quritilgan tuxum oqi
35	Granulalangan patnisda quritilgan tuxum oqi
36-98	Foydalanilmagan kodlar
99	Boshqalar

3. Oddiy tuxum mahsulotlarining fizikaviy va kimyoviy ko‘rsatkichlari

35. An’anaviy texnologiyalar asosida, mahsulotning xususiyatlari va tarkibini o‘zgartirishga qaratilgan maxsus texnologik ishlovlar qo‘llanilmagan holda butun tuxum, tuxum sarig‘i yoki tuxum oqidan tayyorlangan suyuq, muzlatilgan hamda quritilgan tuxum mahsulotlari I ilovadagi jadvalda belgilangan talablarga muvofiq bo‘lishi kerak. Qo‘llaniladigan tahlil usullari xalqaro miqyosda e’tirof etilgan, jumladan AOAC[5] tomonidan tasdiqlangan usullardan iborat bo‘lishi kerak. Tuxum mahsuloti tarkibiy qismlarining massa ulushi foizlarda faqat mahsulotning tuxum qismiga nisbatan ifodalanishi kerak. Iste’molchi va sotuvchi o‘zaro kelishuviga ko‘ra, II ilovada keltirilganlardan farq qiluvchi sifat ko‘rsatkichlari hamda sinov usullarini qo‘llashga ruxsat etiladi.

4. Tuxum mahsulotlarini qayta ishlash

36. Tuxum mahsulotlari FAO/JSST Qo‘shma Kodeks Alimentarius Komissiyasining tuxum va tuxum mahsulotlari uchun gigiyena amaliyoti kodeksiga muvofiq qayta ishlanishi kerak. Tuxum mahsulotlari tegishli vakolatli idora tomonidan tasdiqlangan muassasada qayta ishlanishi kerak.

a) Pasterizatsiya

[5] Rasmiy tahliliy kimyogarlar assotsiatsiyasi (AOAC). Rasmiy tahlil usullari (yangilanishlarni www.aoac.org veb-saytidan topish mumkin).

37. Pasterizatsiya jarayonlarining natijalari tegishli sinov tartib-qoidalari yordamida tekshirilishi kerak."

STANDARTLAR INSTITUTI #NFVVF29WBL - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

Pasterizatsiya kodi (4-ma’lu-motlar maydoni)	*Toifa / Tavsif*
0	Belgilanmagan
1	Pasterizatsiya
2-8	Foydalanilmagan kodlar
9	Boshqalar

(b) Maxsus tartib-qoidalar

37. Tuxum mahsulotlarining tarkibini o‘zgartirish va (yoki) ularning iste’mol xususiyatlarini yaxshilash maqsadida tegishli ishlab chiqarish amaliyoti talablariga muvofiq fermentatsiya, stabilizatsiya (shakarsizlantirish) hamda kislotalilikni tartibga solish (kislotalash) kabi maxsus texnologik ishlovlar qo‘llanilishi mumkin. Bunday ishlovlarni qo‘llash mahsulot import qilinadigan mamlakatning vakolatli organi tomonidan ruxsat etilgan bo‘lishi kerak.

(i) Fermentatsiya

Fermentatsiya kodi (5-ma’lumotlar maydoni)	*Toifa / Tavsif*
0	Belgilanmagan
1	Fermentatsiya
2-8	Foydalanilmagan kodlar
9	Boshqalar

(ii) Stabilizatsiya (shakarsizlantirish)

Stabilizatsiya kodi (6-ma’lumotlar maydoni)	*Toifa / Tavsif*
0	Belgilanmagan
1	Stabilizatsiya
2-8	Foydalanilmagan kodlar
9	Boshqalar

(iii) Kislotalilikni tartibga solish (kislotalash)

Kislotalilikni tartibga solish (kislotalash) kodi (7-ma’lumotlar maydoni)	*Toifa / Tavsif*
0	Belgilanmagan
1	Kislotalilikni tartibga solish (kislotalash)

STANDARTLAR INSTITUTI #NFVVF29WBL - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

2-8	Foydalanilmagan kodlar
9	Boshqalar

(iv) Tuxum oqiga issiqlik ishlovi berish (termik ishlov berish)

Tuxum oqiga issiqlik ishlovi berish kodi (8-ma’lumotlar maydoni)	*Toifa / Tavsif*
0	Belgilanmagan
1	Tuxum oqiga issiqlik ishlov berish
2-8	Foydalanilmagan kodlar
9	Boshqalar

(v) Ionlashtiruvchi nurlanish [6]

Ionlashtiruvchi nurlanish kodi (9-ma’lumotlar maydoni)	*Toifa / Tavsif*
0	Belgilanmagan
1	Ionlashtiruvchi nurlanish
2-8	Foydalanilmagan kodlar
9	Boshqalar

(vi) UB-nurlanish[6]

UB nurlanish kodi (10-ma’lumotlar maydoni)	*Toifa / Tavsif*
0	Belgilanmagan
1	UB nurlanish
2-8	Foydalanilmagan kodlar
9	Boshqalar

6 Ionlashtiruvchi yoki ultrabinafsha (UV) nurlanish bilan ishlov berilgan tuxum mahsulotlari va/yoki qo‘shimchalar import qiluvchi mamlakatda amalda bo‘lgan qonunchilikka muvofiq yetkazib beriladi. Fermentatsiyalangan mahsulotlar bo‘lganda, ushbu ko‘rsatkichlar fermentatsiya jarayonidan oldin qayd etiladi.

STANDARTLAR INSTITUTI #NFVVF29WBL - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

(vii) Sovitish

39. Xaridor tuxum mahsulotlari uchun sovitish rejimidan foydalanishni belgilashi mumkin, bu import qiluvchi mamlakat qonunchiligiga muvofiq bo‘lishi lozim. Bunday qonunchilik mavjud bo‘lmagan taqdirda, eksport qiluvchi mamlakat qonunchiligi qo‘llaniladi.

Sovitish kodi (11-ma’lumotlar maydoni)	*Toifa*	*Tavsif*
0	Belgilanmagan	
1	Sovitilgan	Qadoqlash va keyingi sovitishdan so‘ng mahsulotning ichki harorati har doim ≥ 0 °C va ≤ +4 °C darajada saqlanishi lozim
2	Muzlatilgan	Qadoqlash va keyingi muzlatishdan so‘ng mahsulotning ichki harorati har doim ≤ -12 °C darajada saqlanishi lozim
3	Chuqur muzlatilgan	Muzlatishdan so‘ng mahsulotning ichki harorati har doim ≤ -18 °C darajada saqlanishi lozim
4-8	Foydalanilmaydigan kodlar	
9	Boshqalar	Xaridor va sotuvchi o‘rtasida kelishilgan boshqa har qanday sovitish rejimini tavsiflash uchun ishlatilishi mumkin

(viii) Funksional xususiyatlar

40. Xaridor tuxum mahsuloti uchun import qiluvchi mamlakat qonunchiligiga muvofiq bo‘lishi lozim bo‘lgan funksional xususiyatlarni belgilashi mumkin. Bunday qonunchilik mavjud bo‘lmagan taqdirda, tuxum mahsulotlarining funksional xususiyatlari xaridor va sotuvchi o‘rtasida kelishiladi.

Funksional xususiyatlar kodi (12-ma’lumotlar maydoni)	*Toifa / Tavsif*
0	Belgilanmagan
1	An’anaviy (tabiiy)
2	Yaxshilangan ko‘piruvchanlik
3	Yaxshilangan emulgatsiyalash xususiyati
4	Yaxshilangan xususiyati
5-8	Foydalanilmaydigan kodlar
9	Xaridor va sotuvchi o‘rtasida kelishilgan boshqa har qanday

STANDARTLAR INSTITUTI #NFVVF29WBL - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

	yaxshilangan funksional xususiyatni tavsiflash uchun ishlatilishi mumkin

(ix) Qo‘shimchalar va masalliqlardan foydalanish

41. Xaridor tuxum mahsuloti tarkibiga import qiluvchi mamlakat qonunchiligiga muvofiq bo‘lishi lozim bo‘lgan qo‘shimchalarni kiritishni belgilashi mumkin.

Qo‘shimchalar kodi (13-ma’lumotlar maydoni)	*Toifa / Tavsif*
00	Belgilanmagan
01	Oziq-ovqat qo‘shimchasi
02-09	Foydalanilmaydigan kodlar
10	Qo‘shilgan oziq-ovqat masallig‘i
11-19	Foydalanilmaydigan kodlar
20	Tuz qo‘shilgan
21-29	Foydalanilmaydigan kodlar
30	Shakar qo‘shilgan
31-39	Foydalanilmaydigan kodlar
40	Oziq-ovqat qo‘shimchasi va qo‘shilgan oziq-ovqat masallig‘i
41	Oziq-ovqat qo‘shimchasi va tuz qo‘shilgan
42	Oziq-ovqat qo‘shimchasi va shakar qo‘shilgan
43	Oziq-ovqat qo‘shimchasi , qo‘shilgan oziq-ovqat masallig‘i va tuz
44	Oziq-ovqat qo‘shimchasi qo‘shilgan oziq-ovqat masallig‘i va shakar
45-49	Foydalanilmaydigan kodlar
50	Qo‘shilgan oziq-ovqat masallig‘i va tuz Qo‘shilgan oziq-ovqat masallig‘i va shakar
51	Foydalanilmaydigan kodlar
52-98	Xaridor va sotuvchi o‘rtasida kelishilgan boshqa har qanday qo‘shimchalarni tavsiflash uchun ishlatilishi mumkin
99	

STANDARTLAR INSTITUTI #NFVVF29WBL - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

5. Mikrobiologik mezonlar

42. Har qanday milliy talablarga qo‘shimcha ravishda, tuxum mahsulotlarining mikrobiologik holati Kodeksning „Tuxum va tuxum mahsulotlari uchun gigiyena qoidalari kodeksi“ga muvofiq bo‘lishi lozim.

6. Ifloslantiruvchi moddalarga oid qoidalar

43. Tuxum mahsulotlari tarkibidagi har qanday ifloslantiruvchi moddalarning miqdori import qiluvchi mamlakatning qoldiq moddalar monitoringiga oid qonunchiligida belgilangan miqdorlardan yuqori bo‘lmasligi lozim.

7. Gigiyenaga oid qoidalar

44. Tuxum mahsulotlarini ishlab chiqarishga hamda ularni ishlab chiqaradigan yoki ularni ishlab chiqarishda ishtirok etadigan binolar (xonalar), uskunalar va xodimlarga qo‘yiladigan gigiyena talablari Kodeksning „Tuxum va tuxum mahsulotlari uchun gigiyena qoidalari kodeksi“da belgilanganidek bo‘lishi kerak.

45. Bundan tashqari, tuxum mahsulotlari ushbu standartning IV bobida belgilangan tegishli sinovlardan o‘tishi lozim.

8. Mahsulot tarixi

Kuzatuvchanlik

46. Belgilangan xaridor tomonidan mahsulotning ishlab chiqarilish tarixiga qo‘yiladigan talablar kuzatuvchanlik tizimlarini o‘z ichiga olgan Xavfni tahlil qilish va tanqidiy nazorat nuqtalari (HACCP) dasturining mavjud bo‘lishini talab qiladi. Kuzatuvchanlik ishlab chiqarishning barcha tegishli bosqichlarida mahsulotlarni yoki tovar to‘plarini identifikatsiyalash uchun tekshirilishi mumkin bo‘lgan usul mavjudligini talab etadi. Kuzatuvchanlikka oid yozuvlar bildirilayotgan da’volarni tasdiqlashga qodir bo‘lishi kerak, muvofiqlikni sertifikatlash uchun qo‘llaniladigan tartib-taomillar esa II bob, B.11-bo‘limining muvofiqlikni baholash talablariga oid qoidalariga muvofiq bo‘lishi lozim.

9. Sifat darajasi

47. Tuxum mahsulotlari uchun sifat darajasi quyidagicha belgilanishi mumkin:

STANDARTLAR INSTITUTI #NFVVF29WBL - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

Sifat kodi (14-ma’lumotlar maydoni)	*Toifa*	*Tavsif*
0	Belgilanmagan	II bob, A-bo‘limida belgilangan minimal talablarga javob berishi lozim
1	BMT sifat darajasi	Mahsulot BMT sifat darajasiga javob beradi
2-8	Foydalanilmaydi-gan kodlar	
9	Boshqa	Xaridor va sotuvchi o‘rtasida kelishilgan boshqa sifat darajasi yoki tizimi

10. Tamg‘alashga oid qoidalar

(a) Qadoqlarni tamg’alash

48. Qadoqlarni tamgalash Kodeksning „Tuxum va tuxum mahsulotlari uchun gigiyena qoidalari kodeksi“ ning[7] bandidagi tegishli qoidalarga muvofiq bo‘lishi kerak. Tuxum mahsulotlari joylangan qadoqlarda sharoitga qarab quyidagi ma’lumotlar yaqqol ko‘rinadigan, aniq o‘qiladigan va o‘chmaydigan harflar bilan ko‘rsatilishi lozim:

(a) Mahsulot tavsifi:

Suyuq butun tuxum
Muzlatilgan butun tuxum
Quritilgan butun tuxum (tuxum kukuni yoki granulalar)
Suyuq tuxum sarig‘i
Muzlatilgan tuxum sarig‘i
Quritilgan tuxum sarig‘i (kukun yoki granulalar)
Suyuq tuxum oqsili
Muzlatilgan tuxum oqsili
Laganda quritilgan tuxum oqsili (kukun yoki granulalar)
Purkagichli quritgichda quritilgan tuxum oqsili (kukun yoki granulalar)
Suyuq aralash tuxum mahsuloti
Muzlatilgan aralash tuxum mahsuloti
Konsentrlangan aralash tuxum mahsuloti
Quritilgan aralash tuxum mahsuloti (kukun yoki granulalar)
Konsentrlangan butun tuxum
Konsentrlangan tuxum oqsili

(b) Ko‘rsatmalar

Tuxum oqsili termik ishlovdan o‘tkazilgan hollarda – termik ishlov berilgan ko‘rsatmasi
Mahsulot tarkibidagi shakar ajratib olingan hollarda – barqarorlashtirilgan ko‘rsatmasi
Mahsulotga shunday ishlov berilgan bo‘lsa – kislotalashtirilgan ko‘rsatkichi
Mahsulotga shunday ishlov berilgan bo‘lsa – fermentatsiyalangan ko‘rsatkichi

STANDARTLAR INSTITUTI #NFVVF29WBL - 25.09.2026 O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO‘JALIGI VAZIRLIGI

(c) Mahsulotlar bozorda BMT sifati sifatida sotilganda, ularda albatta BMT sifat darajasi) belgisi bo‘lishi kerak.

(d) Tarkibiy qismlar ro‘yxati, jumladan, mavjud suv va oziq-ovqat qo‘shimchalari, ularning vazni kamayib borish tartibida ko‘rsatilgan holda

(e) Ishlab chiqaruvchining va (yoki) qadoqlovchining, distribyutorning, eksport qiluvchining, import qiluvchining nomi yoki tovar belgisi hamda manzili

(f) Tuxum mahsulotlarini qayta ishlash korxonasining identifikatsiya raqami va tovar to‘pining raqami, bunda har bir to‘piga ketma-ketlik tartibida raqam beriladi

(g) Tuxumning kelib chiqish mamlakati (tuxum qo‘yilgan mamlakat) va tuxum mahsulotining kelib chiqish mamlakati (qayta ishlangan mamlakat)

(h) Netto vazni SI (Xalqaro birliklar tizimi) yoki tizimi birliklarida

(i) Ishlab chiqarilgan sana yoki yaroqlilik muddati

(j) Chakana savdo uchun mo‘ljallanmagan, balki boshqa mahsulot ishlab chiqarishda xomashyo (tarkibiy qism) sifatida foydalanish uchun yo‘naltiriladigan tuxum mahsulotlari turkumlarining yorlig‘ida tuxum mahsulotlarini saqlash shart bo‘lgan harorat va shu orqali mahsulotning sifati saqlanishi ta’minlanadigan muddat ko‘rsatilishi kerak.

(k) Suyuq tuxum mahsulotlari uchun yorliqda, shuningdek, pasterizatsiya qilinmagan suyuq tuxum - yetkazib berilgan joyda ishlov berilishi lozim degan yozuv bo‘lishi hamda tuxum chaqilgan sana va soat ko‘rsatilishi kerak.

49. Tuxum mahsulotlari joylangan qadoqlar import qiluvchi mamlakatning qonunchiligiga muvofiq tamg‘alanishi kerak.

(b) Yirik hajmli idishlarni tamg‘alash

50. Suyuq tuxum mahsulotlari sisternada flyagada yoki boshqa mos keladigan yirik hajmli idishlarda bozorga chiqarilganda, yuqoridagi (a) dan (e) gacha bo‘lgan bandlarda hamda (h) bandida ko‘rsatilgan ma’lumotlar foydalanilgan hujjatlarda taqdim etilishi mumkin. Biroq (f) bandida hamda (i), (j) va (k) bandlarida nazarda tutilgan ma’lumotlar albatta idishning o‘zida ko‘rsatilgan bo‘lishi lozim.

11. Muvofiqlikni baholash talablariga oid qoidalar

51. Xaridor belgilangan talablar bo‘yicha uchinchi tomon muvofiqlikni baholashni talab qilishi mumkin. Bunday hollarda, uchinchi tomon sertifikatlashtirish organining nomi va qo‘llaniladigan baholash talablari xaridor va sotuvchi tomonidan kelishib olinishi shart.

52. Uchinchi tomon sertifikatlashtirish organi pudratchiga har bir kelishilgan element bo‘yicha baholash natijalarini aks ettiruvchi yozma hisobotni taqdim etadi.

53. Baholash ko‘lami cheklangan bo‘lishi yoki ushbu standartda yoxud boshqa belgilangan standartlarda ko‘rsatilgan talablarga muvofiqligini aniqlash uchun har tomonlama o‘tkazilishi mumkin.

STANDARTLAR INSTITUTI #NFVVF29WBL - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

[7] Ushbu Kodeks „Oldindan qadoqlangan oziq-ovqat mahsulotlarini markirovkalash bo‘yicha umumiy Kodeks standarti“ga (CODEX STAN 1-1985) havola qiladi. Oxirgi marta 2010-yilda o‘zgartirishlar kiritilgan, yangilanishlar bilan tanishish uchun Codex Alimentarius veb-sahifasiga qarang.

Muvofiqlikni baholash kodi (17-ma’lumotlar maydoni) *Izoh: 65-banddagi jadvalga muvofiq bo‘lishi kerak*	*Toifa*
0	Belgilanmagan
1	Belgilangan standart
2	Belgilangan standart elementilari
3	Belgilangan birlashtirilgan standart elementlari
4-8	Foydalanilmaydigan kodlar
9	Boshqa

12. Qadoqlash, saqlash va tashishga oid qoidalar

54. Qadoqlash, saqlash va tashish Kodeksning Tuxum va tuxum mahsulotlari uchun gigiyena qoidalari kodeksining tegishli qoidalariga muvofiq bo‘lishi kerak.

55. Tuxum mahsulotlari ularni tegishli talablarga muvofiq ravishda yetarli darajada himoya qiladigan hamda ifloslanishning oldini oladigan tarzda qadoqlanishi kerak. Qadoqlash materiali tuxum mahsulotlariga begona rang, hid yoki ta’m bermasligi hamda import qiluvchi mamlakat qonunchiligiga muvofiq bo‘lishi lozim.

56. Jo‘natishdan oldingi saqlash sharoitlari va tashish uchun foydalaniladigan uskunalar tuxum mahsulotlarining fizik holatiga mos bo‘lishi hamda import qiluvchi mamlakat talablariga muvofiq bo‘lishi lozim. Bunda BMT Yevropa iqtisodiy komissiyasi BMT ning “Tez buziladigan oziq-ovqat mahsulotlarini xalqaro tashish hamda bunday tashishda qo‘llaniladigan maxsus jihozlar to‘g‘risida”gi Bitimi (ATP) qoidalariga amal qilinishi kerak.(www.unece.org/trans/main/wp11/atp.html) .

(a) Qadoq vazni

57. Qadoq - muayyan miqdordagi tuxum mahsulotidan iborat qadoqlash birligi. Mahsulotning netto massasi qadoqda ko‘rsatilishi kerak. Netto massani belgilash, qo‘llash va tekshirish tartibi xaridor hamda sotuvchi o‘rtasidagi kelishuvga muvofiq, quyidagi jadval asosida belgilanadi:

Qadoq vazni kodi (P1 ma’lumotlar maydoni)	*Toifa / Tavsif*

STANDARTLAR INSTITUTI #NFVVF29WBL - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

0	Ko‘rsatilmagan
1	Netto vazn belgilangan
2-8	Foydalanilmaydigan kodlar
9	Boshqa

(b) Birlamchi qadoqlash

58. Birlamchi qadoqlash mahsulot bilan bevosita aloqada bo‘ladi va mahsulotni alohida iste’mol yoki yirik hajmli birliklarga ajratish uchun ishlatiladi. Quyidagi turdagi birlamchi qadoqlash turlari belgilanishi mumkin:

Birlamchi qadoqlash kodi (P2 ma’lumotlar maydoni)	*Toifa / Tavsif*
00	Belgilanmagan
01	Plastik xalta
02	Metall banka
03	Metall flyaga (aralashtirish qurilmasi mavjud)
04	Metall kanistr/idish
05	Metall sisterna
06	Metall konteyner
07	Plastik chelak
08	Plastik kanistr
09	Plastik bochka
10-98	Foydalanilmaydigan kodlar
99	Boshqa

(c) Birlamchi qadoqni tamg‘alash

59. Birlamchi qadoqni tamg‘alash tamg‘alash quyidagicha belgilanishi mumkin:

Tamg‘alash kodi (P3 ma’lumotlar maydoni)	*Toifa / Tavsif*
0	Belgilanmagan
1	Iste’molchi yorliqlari import qiluvchi mamlakat talablariga muvofiq bo‘lishi kerak
2	Tamg‘alanmagan
3-9	Foydalanilmaydigan kodlar

(d) Birlamchi qadoq vazni

STANDARTLAR INSTITUTI #NFVVF29WBL - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

60. Birlamchi qadoqdagi mahsulotning netto massasi qadoqda ko‘rsatilgan netto massaga muvofiq bo‘lishi kerak. Netto massani belgilash, qo‘llash va tekshirish tartibi xaridor hamda sotuvchi o‘rtasidagi kelishuv asosida belgilanadi.

Birlamchi qadoq vazni kodi (P4 ma’lumotlar maydoni)	*Toifa / Tavsif*
0	Belgilanmagan
1	Netto vazn belgilangan
2-8	Foydalanilmaydigan kodlar
9	Boshqa

(e) Ikkilamchi qadoqlash

61. Ikkilamchi qadoqlash mahsulotni tashish jarayonida himoya qilish va identifikatsiya qilish uchun ishlatiladi. Ikkilamchi qadoqlar bir yoki bir nechta birlamchi qadoqlardan iborat bo‘lib, import qiluvchi mamlakat talablariga muvofiq tamg‘alanishi lozim. Ikkilamchi qadoqlashning quyidagi turlari belgilanishi mumkin:

Ikkilamchi qadoqlash kodi (P5 ma’lumotlar maydoni)	*Toifa*
0	Belgilanmagan
1	Ko‘p qatlamli (laminatlangan) qog‘oz qop
2	Plastik quti
3	Gofrokarton quti
4-8	Foydalanilmaydigan kodlar
9	Boshqa

(f) Ikkilamchi qadoq vazni

62. Ikkilamchi qadoq (tashish uchun qadoqlash) vazni besh raqamli bo‘lib, verguldan keyin bitta o‘nli xona bilan ifodalanadi (0000.0 kg). Ikkilamchi qadoq vaznidagi yo‘l qo‘yiladigan xatoliklar va vazn diapazonlari xaridor va sotuvchi tomonidan belgilanadi.

Ikkilamchi qadoq vazni kodi (P6 ma’lumotlar maydoni)	*Toifa / Tavsif*
00000	Belgilanmagan
00001 - 99999	Besh raqamli vazn kilogrammda (0000.0 kg) belgilangan

(g) Tuxum mahsulotlarini qadoqlash va o‘rashni kodlashtirish shakli

STANDARTLAR INSTITUTI #NFVVF29WBL - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

63. Quyidagi jadvalda tuxum mahsulotlari uchun qadoqlash va o‘rashni tavsiflovchi kodlashtirish shaklining umumiy qo‘llanilishi ko‘rsatilgan:

Ma’lumotlar maydoni	*Tavsif*	*Bob*	*Kodlar diapazoni*
P1	Qadoq vazni	II.B.12 (a)	0-9
P2	Birlamchi qadoqlash	II.B.12 (b)	00-99
P3	Birlamchi qadoq tamg‘aga	II.B.12 (c)	0-9
P4	Birlamchi qadoq vaz-ni	II.B.12 (d)	0-9
P5	Ikkilamchi qadoqlash	II.B.12 (e)	0-9
P6	Ikkilamchi qadoq vazni	II.B.12 (f)	00000-99999

III. Tuxum mahsulotlari uchun xaridor talablari bo‘yicha BMT kodi

A. Kod ta’rifi

64. Tuxum mahsulotlari uchun xaridor talablari bo‘yicha BMT kodi 17 ta maydon va 20 ta raqamdan iborat (2 ta raqam ishlatilmaydi) hamda II bob, B qismda belgilangan kodlar majmuasini o‘z ichiga oladi.

No.	*Nomlanishi*	*Bob*	*Kodlar diapazoni*
1	Tuxum mahsuloti	I.A	00-99
2	Boshlang‘ich xomashyo	II.B.1	0-9
3	Mahsulot turi	II.B.2	00-99
4	Pasterizatsiya	II.B.4 (a)	0-9
5	Fermentatsiya	II.B.4 (b) (i)	0-9
6	Stabilizatsiya (shakarsizlantirish)	II.B.4 (b) (ii)	0-9
7	Kislotalilikni rostlash (kislotalash)	II.B.4 (b) (iii)	0-9
8	Tuxum oqini issiqlik bilan qayta ishlash	II.B.4 (b) (iv)	0-9
9	Ionlashtiruvchi nurlanish	II.B.4 (b) (v)	0-9
10	UB nurlanish	II.B.4 (b) (vi)	0-9
11	Sovutish	II.B.4 (vii)	0-9
12	Funksional xususiyatlar	II.B.4 (viii)	0-9
13	Qo‘shimchalar va ingredientlardan foydalanish	II.B.4 (ix)	00-99
14	Sifat darajasi	II.B.9	0-9
15	Foydalanilmaydigan maydon	-	0-9

STANDARTLAR INSTITUTI #NFVVF29WBL - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

16	Foydalanilmaydigan maydon	-	0-9
17	Muvofiqlikni baholash	II.B.11	0-9

B. Namuna

65. Quyidagi jadval kukunsimon shakldagi, B sinf tovuq tuxumidan tayyorlangan quritilgan butun tuxum mahsulotini tavsiflaydi. Mahsulot pasterizatsiya qilingan va fermentatsiya orqali stabilizatsiya qilingan. U kislotalashsiz, haroratni nazorat qilmasdan yoki ionlashtiruvchi yoxud UV nurlanishisiz ishlab chiqarilgan va tarkibida qo‘shimchalar mavjud emas. Mahsulot an’anaviy funksional xususiyatlarga ega va BMT sifat darajasiga javob beradi. Qadoqlashdan keyingi davrda u sovutilmaydi. Belgilangan standartga muvofiqligi xaridor tomonidan tayinlangan kompaniya tomonidan sertifikatlanishi kerak.

66. Ushbu mahsulot quyidagi BMT tuxum mahsuloti kodiga ega: 76203111000001001001.

Ma’lumot raqami	*Nomi*	*Talab*	*Kod qiymati*
1	Tuxum mahsuloti	Tuxum mahsuloti	76
2	Boshlang‘ich xomashyo	B toifali tovuq tuxumi	2
3	Mahsulot turi	Kukun	03
4	Pasterizatsiya	Pasterizatsiyalangan	1
5	Fermentatsiya	Fermentatsiyalangan	1
6	Stabilizatsiya	Shakarsizlantirilgan	1
7	Kislotalilikni rostlash	Kislotalanmagan	0
8	Tuxum oqini qayta ishlash	Issiqlik bilan qayta ishlanmagan	0
9	Ionlashtiruvchi nurlanish	Ionlashtiruvchi nurlanish bilan ishlov berilmagan	0
10	UB nurlanish	UV nurlanish bilan ishlov berilmagan	0
11	Sovutish	Sovutilmagan yoki belgilanmagan	0
12	Funksional xususiyatlar	An’anaviy (tabiiy))	1
13	Qo‘shimchalar va ingredientlardan foydalanish	Qo‘shimchalarsiz yoki belgilanmagan	00
14	Sifat darajasi	UNECE sifat darajasi	1
15	Foydalanilmaydigan maydon	-	0
16	Foydalanilmaydigan maydon	-	0

STANDARTLAR INSTITUTI #NFVVF29WBL - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

17	Muvofiqlikni baholash	Sifatni baholashga muvofiq	1

Ma’lumotlar, raqami	*Nomi*	*Talab*	*Kod qiymati*
		Belgilangan standart	

IV. Tahlil usullariga oid qoidalar

67. Tahlil va namuna olish usullari II ilovada keltirilgan. Agar boshqa usullar va vositalar aniq natijalarni ta’minlasa va ushbu standart talablariga javob bersa, ulardan foydalanish mumkin.

68. Tuxum mahsulotlarini pasterizatsiya qilinganligi tegishli sinov yordamida aniqlanishi kerak. Agar alfa-amilaza sinov qo‘llanilsa, u Tuxum va tuxum mahsulotlari uchun gigiyena amaliyoti kodeksi da belgilangan tartibda bajarilishi lozim.

STANDARTLAR INSTITUTI #NFVVF29WBL - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

I Ilova

Oddiy tuxum mahsulotlarining fizik va kimyoviy ko‘rsatkichlari

	Mahsulot						
	Butun tuxum		*Tuxum sarig‘i*		*Tuxum oqi*		
	Suyuq va muzlatilgan	Quruq	Suyuq va muzlatilgan	Quruq	Suyuq va muzlatilgan	*Quruq*	
						Patnisda quritish	*Purkab quritish*
Quruq moddalarning minimal miqdori (%)*	22.0	95.0	43.0	95.0	10.5	84.0	92.0
Yog‘ning minimal miqdori (%)	9.8	39.0	25.0	55.0	0.05	0.5	
Oqsilning minimal miqdori (%)	10.5	45.0	15.0	33.0	10.0	71.0	75.0
Begona jismlar(moddalar)	100 g mahsulotda 1 mm dan katta bo‘lgan zarrachalar bo‘lmasligi kerak va ularning umumiy miqdori 100 mg/kg dan oshmasligi lozim.	Bir xil	Bir xil	Bir xil	Bir xil	Bir xil	
Vodorod ionlarining minimal konsentratsiyasi (pH)	7.0	7.5	5.9	6.0	8.5	4.0	
Beta-gidroksiboyog‘ kislotasining maksimal miqdori (mg/kg)	10	10	10	10	10	10	
Sut kislotasining maksimal miqdori (mg/kg)	1 000	-	1 000	-	1 000	-	
Qahrabo kislotasi kislotasining maksimal miqdori (mg/kg)	25		25		25		

STANDARTLAR INSTITUTI #NFVVF29WBL - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

Izoh:

**Quritilgan tuxum mahsulotlari uchun yog‘ va tuxum oqi moddasining vazn nisbati quruq modda sifatida hisoblanadi. Quritilgan tuxum mahsulotidagi namlik darajasi import qiluvchi mamlakat talablariga javob beradigan darajada nazorat qilinishi kerak.*

II Ilova

Tahlil va namuna olish usullari

I. Namunani tayyorlash

A. Umumiy qoidalar

1. Namunalar bir jinsli mahsulotlardan aseptik usulda olinishi lozim. Namunalar vakolatli xususiyatiga ega bo‘lishi, ifloslanmagan bo‘lishi hamda import qiluvchi mamlakat qonunchiligiga yoki xaridor va sotuvchi o‘rtasidagi kelishuvga muvofiq tup hajmiga moslashtirilgan bo‘lishi kerak. Iloji bo‘lsa, muhrlangan birlamchi idishlar yig‘ilib, laboratoriya tahlillari uchun tegishli tartibda taqdim etilishi lozim. Laboratoriyaga yuborilgunga qadar namunalarni saqlash mahsulot turiga mos sharoitlarda amalga oshirilishi kerak.

2. Namuna tahlil qilishdan oldin bir jinsli holatga keltirilishi va havo kirmaydigan germetik idishda, salqin joyda saqlanishi kerak.

3. Muzlatilgan barcha namunalar uchun: namuna eritiladi yoki 50°C dan past bo‘lgan haroratdagi suv hammomida isitiladi, bir jinsli holatga keltiriladi va barcha tahlil turlarida suyuq namunalar kabi qayta ishlanadi.

4. Quritilgan barcha namunalar uchun: namuna tahlilga tayyorlash jarayonida taxminan 1 mm² kattalikdagi to‘rli elakdan uch marta o‘tkaziladi, bunda paydo bo‘lgan har qanday bo‘lakchalar yaxshilab maydalanadi.

B. Tahlil

5. Namunalar quyidagi ko‘rsatkichlar bo‘yicha tahlil qilinishi kerak:

- Quruq modda ;
- Umumiy yog‘ miqdori;
- Alfa-amilaza sinovi ;
- pH (vodorod ionlari konsentratsiyasi);
- Beta-gidroksiboyog‘ kislotasi;
- Protein (Oqsil);
- Sut kislotasi;
- Qahrabo kislotasi ;
- Begona moddalar.

STANDARTLAR INSTITUTI #NFVVF29WBL - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

6. Foydalaniladigan tahlil usullari Rasmiy analitik kimyogarlar assotsiatsiyasi tomonidan ma’qullangan eng so‘nggi usullar yoki Tuxum mahsulotlari uchun gigiyena amaliyoti Kodeksiga mos bo‘lishi kerak

7. O‘lchov va tahlil uskunalarining aniqligi va to‘g‘riligi ISO 5725-5:1998 xalqaro standartlari talablariga javob berishi kerak.

8. To‘g‘rilikni tekshirish (shu jumladan sinov natijalarining takrorlanuvchanligi, kalibrlash va standartlardan foydalanish) ISO 17025:2005 standartiga muvofiq bo‘lishi kerak.

C. Natijalarni taqdim etish

9. Natija, foydalanilgan tahlil usulining aniqligi ruxsat berganidan ko‘ra ko‘proq ahamiyatli raqamlarni o‘z ichiga olmasligi kerak.

D. Sinov hisoboti

10. Sinov hisoboti namunani to‘liq identifikatsiya qilish uchun zarur bo‘lgan barcha ma’lumotlarni o‘z ichiga olishi kerak.

E. Qayta ishlab chiqish

11. Bir xil tahlilchi tomonidan bir xil namunada bir vaqtning o‘zida yoki ketma-ket qisqa vaqt oralig‘ida o‘tkazilgan ikkita aniqlash natijalari o‘rtasidagi farq har 100 g namunaga nisbatan 0,1 g quruq moddadan oshmasligi kerak.

II. Usullar

1-usul: Yog‘ miqdorini aniqlash

A. Qo‘llanilish doirasi

12. Ushbu usul quyidagi mahsulotlarda yog‘ miqdorini aniqlash imkonini beradi:

- Suyuq butun tuxum mahsuloti
- Suyuq sarig‘i mahsuloti
- Suyuq oqsil mahsuloti
- Muzlatilgan butun tuxum mahsuloti
- Muzlatilgan sarig‘i mahsuloti
- Muzlatilgan oqsil mahsuloti
- Quritilgan butun tuxum mahsuloti
- Quritilgan sarig‘i mahsuloti
- Quritilgan tuxum oqi mahsuloti
- Konsentrlangan aralashtirilgan tuxum mahsulotlari
- Muzlatilgan aralashtirilgan konsentrlangan tuxum mahsuloti
- Quritilgan aralashtirilgan konsentrlangan tuxum mahsuloti.

STANDARTLAR INSTITUTI #NFVVF29WBL - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

B. Ta’rif

13. Tuxum mahsulotlarining yog‘ miqdori: quyida ko‘rsatilgan usul bilan aniqlangan yog‘ miqdori.

C. Tamoyil

14. Namuna xlorid kislotasi bilan gidrolizlanadi va ajralib chiqqan yog‘ neft efiri yordamida ekstraksiya qilinadi, ajratib olinadi va boshlang‘ich namunaning massasiga nisbatan foizlarda hisoblanadi.

15. Tuz va shakar qo‘shilgan namunalarda kislotali gidrolizdan keyin olingan qoldiq Soxhlet qurilma yordamida qayta ekstraksiya qilinadi.

D. Reagentlar

- Xlorid kislotasi, konsentrlangan (tarkibi 36.5–38% HCl)
- Dietil efiri
- . Qaynash harorati 30 °C dan 60 °C gacha bo‘lgan neft efiri.

E. Uskunalar

- Mojonnier ekstraksiya naychasi;
- 70 °C dan 100 °C gacha bo‘lgan haroratda termostatik boshqariladigan suv hammomi;
- 100 ± 1 °C haroratda termostatik boshqariladigan quritish shkafi;
- mos gilzalar bilan jihozlangan Soxhlet qurilmasi
- Analitik tarozi.

F. Jarayon

16. Mojonnier yog‘-ekstraksiya naychasiga taxminan 2 g suyuq yoki muzlatilgan sarig‘ mahsuloti, 3 g suyuq yoki muzlatilgan butun tuxum mahsuloti yoxud 1 g quritilgan sarig‘ yoki butun tuxum mahsulotini aniq tortib oling. Naycha devorlariga yopishib qolgan tuxum zarralarini yuvib tushirgan holda, 10 ml xlorid kislotani sekinlik bilan qo‘shing va kuchli chayqating.

17. Namuna solingan naychani 70°C haroratga sozlangan suv hammomiga joylashtiring, qaynash darajasiga yetkazing va 30 min davomida qaynash haroratida qizdirishda davom eting. Bu vaqt mobaynida har 5 min naychani ehtiyotkorlik bilan chayqab turing. 30 min so‘ng naychani chiqarib oling, naychaning pastki qismigacha (kolbaga) yetguncha suv qo‘shing va xona haroratigacha sovuting.

18. Namuna solingan naychaga 25 ml dietil efir qo‘shib aralashtiring. So‘ngra 25 ml neft efirini qo‘shing, aralashtiring va erituvchi qatlami tindirib qo‘yiladi.

19. Efir-yog‘ eritmasining iloji boricha ko‘proq qismini oldindan tortilgan va ichiga qaynab chiqishga qarshi granulalar solingan kolbaga ajratib oling. Kolbani tortishdan oldin uni va tarozining ikkinchi pallasiga qo‘yiladigan shunga o‘xshash kolbani 100°C haroratli pechda quriting va o‘zgarmas massaga erishilgunga qadar havo ta’sirida qoldiring.

STANDARTLAR INSTITUTI #NFVVF29WBL - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

20. Naychada qolgan suyuqlikni har safar 15 ml efir ishlatib, ikki marta qayta ekstraksiya qiling. Har safar efir qo‘shganda yaxshilab chayqating. Eritmalar tiniqlashishini kuting va efir-yog‘ eritmasini avvalgidek kolbaga ajratib oling.

21. Efirni kolbadan asta-sekin bug‘latib yuborish uchun uni ehtiyotkorlik bilan qaynoq suv hammomiga joylashtiring. Yog‘ni quritish uchun kolbani 100 C^0 haroratdagi pechga o‘zgarmas vaznga erishilguncha (taxminan 90 min dan so‘ng) qo‘ying. Kolba va tarozini (qarshi og‘irlikni) pechdan chiqarib, xona haroratida o‘zgarmas vaznga kelguncha sovuting izoh: kolbaning o‘lchami va tekshirilayotgan materialning xususiyatlaridan kelib chiqib, havoda sovutish desikkatorda sovutishga qaraganda kamroq xatolikka olib keladi). Olingan vaznni ishlatilgan reagentlar yordamida o‘tkazilgan nazorat tajribasi bilan to‘g‘rilang.

G. Natijalarni taqdim etish

(a) Formula va hisoblash usuli

22. Namuna massasiga nisbatan yog‘ miqdori quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

m_1/m_o x 100,

Bu yerda:

m_0 — ekstraksiya va nazorat tajribasi dan so‘ng olingan yog‘ning massasi ,
m_1 — tahlil uchun olingan tuxum mahsuloti namunasining massasi.

(b) Takrorlanuvchanlik

23. Bir xil tahlilchi tomonidan, bir xil namunada, bir vaqtning o‘zida yoki ketma-ket qisqa vaqt oralig‘ida o‘tkazilgan ikki tahlil natijalari o‘rtasidagi farq har 100 g namunaga nisbatan 0,3 g yog‘dan oshmasligi kerak.

H. Izoh

24. Tarkibida tuz va shakar bo‘lgan tuxum mahsulotlarining yog‘ miqdorini aniqlash yuqorida keltirilgan tartibda amalga oshiriladi, biroq uchinchi ekstraksiyadan so‘ng olingan kislotali eritmadan yog‘ni yanada to‘liqroq ajratib olish uchun quyidagi qo‘shimcha jarayon bajariladi:

Ekstraksiyadan so‘ng qolgan suvli qatlamni filtr qog‘ozi orqali filtrlang va yuvish suvi ko‘k lakmus qog‘ozining rangini o‘zgartirmaguncha (neytral reaksiyaga erishguncha) filtr qog‘ozini issiq suv bilan yuving. Filtr qog‘ozini soat oynasi yoki Petri idishiga joylashtiring va 100°C haroratli pechda 1 soat davomida quriting. Sovutgandan so‘ng, qisqich yordamida filtr qog‘ozini Soxlet apparatining ekstraksiya gilzasiga (thimble) joylashtiring. Soat oynasi yoki

STANDARTLAR INSTITUTI #NFVVF29WBL - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

Petri idishida qolgan yog‘ izlarini neft efiri (petroleum ether) bilan namlangan paxta yordamida tozalab oling va paxtani ham gilzaga soling. Gilzani ekstraksiya naychasiga joylashtiring.

Soxlet uskunaga ekstraksiya erituvchisini qo‘shing va ekstraksiya kolbasini qum yoki suv hammomiga (yoki shunga o‘xshash boshqa moslamaga) joylashtirib, 4 soat davomida ekstraksiya qiling. Ekstraksiya tugagach, erituvchini ekstraksiya kolbasidan chiqarib tashlang va qolgan jarayonni 21-bandda ko‘rsatilgan tartibda amalga oshiring.

(b) kichik bandda tasvirlangan usul yordamida olingan yog‘ massasini 21-bandda tasvirlangan usul yordamida olingan massaga qo‘shing. Natijada m_0 - ekstraksiyadan keyin olingan yog‘ning grammdagi (g) tuzatilgan massasi hosil bo‘ladi.

25. Ushbu usul o‘zining tamoyiliga ko‘ra Rasmiy tahlil usullari assotsiatsiyasi tomonidan chop etilgan Rasmiy tahlil usullari qo‘llanmasining o‘n sakkizinchi nashri, 31.4.02-bo‘limida tasvirlangan usul bilan bir xildir.

26. Soxhlet qurilmasi bo‘yicha qo‘shimcha jarayon o‘zining tamoyiliga ko‘ra Codex Alimentarius"ning tavsiya etilgan tahlil va namuna olish usullari (CODEX STAN 234-1999, 2007-yilda o‘zgartirilgan) hujjatida keltirilgan usul bilan bir xildir.

2-usul: Alfa-amilaza sinov

A. Qo‘llanilish doirasi

27. Pasterizatsiya samaradorligi quyidagi holatlarda aniqlanadi:

- Suyuq butun tuxum mahsuloti
- Suyuq tuxum sarig‘i mahsuloti
- Muzlatilgan butun tuxum mahsuloti
- Muzlatilgan tuxum sarig‘i mahsuloti
- Quruq (kukun) butun tuxum mahsuloti
- Quruq (kukun) tuxum sarig‘i mahsuloti
- Suyuq aralashtirilgan/konsentrlangan tuxum mahsuloti
- Muzlatilgan aralashtirilgan/konsentrlangan tuxum mahsuloti
- Quruq (kukun) aralashtirilgan/konsentrlangan tuxum mahsuloti

B. Ta’rif

28. Pasterizatsiya samaradorligi: quyida ko‘rsatilgan usul bo‘yicha faol alfa-amilazaning yo‘qligi/mavjudligi.

C. Tamoyil

29. Har qanday faol alfa-amilazaning mavjudligi (pasterizatsiya qilinmagan yoki yetarli darajada pasterizatsiya qilinmagan tuxum mahsulotida uchraydi) uning qo‘shilgan kraxmalni parchalash qobiliyati bilan aniqlanadi. Natijada, keyingi bosqichda yod eritmasi qo‘shilganda kraxmal-yod kompleksi hosil bo‘lmaydi.

STANDARTLAR INSTITUTI #NFVVF29WBL - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

D. Reagentlar, asbob-uskunalar, tartib va talqin qilish

30. Qo‘llanilishi lozim bo‘lgan usul Rasmiy tahlil usullari assotsiatsiyasi tomonidan chop etilgan Rasmiy tahlil usullari qo‘llanmasining eng so‘nggi nashridan olingan bo‘lishi kerak.

3-usul: Yot moddalarni aniqlash[8]

31. Tuxum po‘stlog‘i qoldiqlari yoki boshqa yot moddalar mavjudligini aniql ash uchun tekshirilayotgan moddadan 100 g miqdorida olib, 1000 ml hajmli o‘lchov silindriga soling, distillangan suvni 1000 ml belgisigacha qo‘shing, ehtiyotkorlik bilan aralashtiring va teshiklari diametri 1 mm bo‘lgan elakdan o‘tkazing. Elakdan o‘tkazilgandan so‘ng elakda hech qanday qoldiq qolmasligi kerak.

32. Quritilgan tuxum mahsulotlari uchun ushbu sinov qayta suyultirilgan mahsulot usti-da o‘tkazilishi kerak.

4-usul: Sut kislotasini aniqlash

33. AOAC 944.05 rasmiy usuli: “Tuxumdagi sut kislotasi, kolorimetrik usul”. “Rasmiy tahlil usullari” assotsiatsiyasi “Rasmiy tahlil usullari” (17-nashr, 2-tahrir, 944.05-rasmiy usul).

5-usul: qahrabo kislotasi aniqlash

34. AOAC 948.14 rasmiy usuli: “Tuxumdagi qaxrabo kislotasi”, efirli ekstraksiya usuli. “Rasmiy tahlil usullari assotsiatsiyasi” “Rasmiy tahlil usullari” (17-nashr, 2-tahrir, 948.14-rasmiy usul).

6-usul: Beta-gidroksibutil, sut va qaxrabo kislotalarini aniqlash

35. AOAC 970.31 rasmiy usuli: “Tuxumdagi beta-gidroksibutil, sut va qaxrabo kislotalari”, gaz xromatografik usuli. “Rasmiy tahlil usullari assotsiatsiyasi”, “Rasmiy tahlil usullari” (17-nashr, 2-tahrir, 970.31-rasmiy usul).

---

[8] Ushbu usul Ixtisoslashtirilgan seksiyalar tomonidan 1 mm dan kichikroq zarrachalarni aniqlaydigan usul ishlab chiqilgunga qadar vaqtinchalik (shartli ravishda) qabul qilingan

STANDARTLAR INSTITUTI #NFVVF29WBL - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI